

“BIZNESGA QADAM” kredit mahsuloti pasporti

T/r	Shartlar va izohlar	
1	Mahsulotdan maqsadi	O‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga mikrokredit ajratish
2	Mahsulotdan foydalanuvchilar	O‘zini o‘zi band qilgan xamda murojat qilgan kunda 21 yoshga to‘lgan va 60 yoshdan oshmagan jismoniy shaxslar
3	Qarz oluvchilarga talablar	1. Salbiy kredit tarixiga ega bo‘lmasligi kerak. 2. Qarz oluvchini birinchi marta o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlaridan ro‘yxatdan o‘tganligiga 6 (olti) oydan oshmagan bulishi lozim hamda ijtimoiy soliq to‘lovini amalga oshirganligini tasdiqlovchi hujjatni bankka taqdim etishi kerak. 3. Kredit/qarzlari bo‘yicha muddati o‘tgan kredit qarzдорliklari bo‘lmasligi kerak.
4	Mahsulotdan foydalanish tartibi	Mahsulot bank tomonidan qarz oluvchiga yopiq kredit liniyasi ko‘rinishida milliy valyutada taqdim etiladi.
5	Kredit summasi va ta‘minoti	1. 10 000 000 (O‘n million) so‘mgacha – kredit qaytmaslik xatari sug‘urta polisi yoki rasmiy daromadga ega jismoniy shaxs kafilligi asosida. 2. 100 000 000 (Bir yuz million) so‘mgacha – kredit summasining to‘liq qismi uchun qat‘iy ta‘minot (depozit, noturar ko‘chmas mulk, transport vositasi va tilla buyumlari) asosida.
6	Muddati	36 oygacha
8	Foizi	1) 10 000 000 (O‘n million) so‘mgacha – 25 foiz. 2) 10 000 000 (O‘n million) so‘mdan yuqori – 28 foiz
9	Kredit ajratish shakli	Naqd, naqdsiz shaklda yoki shaxsiy plastik kartasiga o‘tkazish orqali
10	Talab qilinadigan hujjatlar	Kredit siyosati hamda boshqa ichki qoidalar talablari doirasida quyidagilar: - ariza; - shaxsini tasdiqlovchi hujjat; - sotib olinayotgan tovar xom ashyo shartnomasi (naqdsiz ajratilayotgan holatlarda); - o‘zini-o‘zi band qilganligini tasdiqlovchi hujjat; - ijtimoiy soliq to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat; - mijoz telefonidagi soliq mobil ilovasidagi “Umumiy xizmatlar” menyusidagi “O‘zini o‘zi band qilish” bo‘limi “Mening faoliyat turlarim” saxifasidagi faoliyat turlari “screenshot” hujjati; - kredit ta‘minoti xujjatlari.
11	Kredit qaytarish shakli	Differensial (Kredit tani teng ulushlarda)/ Annuitet